



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

JADIDCHILIK HARAKATI VA USULI JADID MAKTABLARI: TA'LIM ISLOHOTLARI TARIXI

Topildiyeva Muyassar Raximjonovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakati doirasida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari hamda "usuli jadid" maktablarining shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan eski maktab tizimini isloh qilish, zamonaviy dunyoviy bilimlarni joriy etish, yangi o'qitish usullarini qo'llash hamda darsliklar yaratish borasida amalga oshirilgan ishlar yoritiladi. Shuningdek, maqolada an'anaviy ta'lim tizimi bilan jadid maktablari o'rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Jadid pedagoglarining yosh avlodni ma'rifatli, mustaqil fikrlaydigan va intellektual salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan qarashlari bugungi ta'lim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, usuli jadid maktablari, ta'lim islohoti, ma'rifatparvarlik, zamonaviy ta'lim tizimi, pedagogika, yangi o'qitish metodlari, darsliklar, dunyoviy bilimlar, intellektual salohiyat, barkamol avlod tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish.

ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДИЗМА И ШКОЛЫ НОВОГО МЕТОДА: ИСТОРИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ

Топилдиева Муяссар Рахимжоновна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются образовательные реформы, осуществлённые в рамках джадидского движения, а также рассматриваются процесс формирования и развития школ «усули джадид». Освещается деятельность джадидских просветителей по реформированию традиционной системы обучения, внедрению современных светских знаний, применению новых методов преподавания и созданию учебников. В статье также проводится сравнительный анализ различий между традиционной системой образования и школами джадидского типа. Подчёркивается, что педагогические взгляды джадидских просветителей, направленные на воспитание образованного, самостоятельного и интеллектуально развитого молодого поколения, сохраняют свою актуальность и в современной системе образования.

Ключевые слова: джадидское движение, школы усули джадид, образовательная реформа, просветительство, современная система образования, педагогика, инновационные методы обучения, учебники, светские знания, интеллектуальный потенциал, воспитание гармонично развитого поколения, духовно-просветительское развитие.

THE JADID MOVEMENT AND NEW METHOD SCHOOLS: HISTORY OF EDUCATIONAL REFORMS

Topildiyeva Muyassar Rakhimjonovna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the educational reforms carried out within the framework of the Jadid movement and examines the formation and development of the "Usuli Jadid" schools. It highlights the efforts of Jadid reformers to transform the traditional school system, introduce modern secular knowledge, apply new teaching methods, and create new textbooks. The article

also presents a comparative analysis of the differences between the traditional education system and Jadid schools. In addition, it emphasizes that the pedagogical views of Jadid educators on educating the younger generation to become enlightened, independent-thinking, and intellectually developed individuals remain highly relevant for modern education.

Keywords: Jadid movement, Usuli Jadid schools, educational reform, enlightenment, modern education system, pedagogy, innovative teaching methods, textbooks, secular knowledge, intellectual potential, upbringing of a well-rounded generation, spiritual and educational development..

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston o'lkasi tarixi uchun tub burilish davri boshlandi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati kuchaygan, jamiyat esa o'rta asrlarga xos turg'unlik iskanjasida qolgan bir paytda maydonga millat fidoyilari — jadidlar chiqdi. Ularning asosiy maqsadi millatni jaholat botqog'idan qutqarish, xalqning ko'zini ochish va hurriyat sari yetaklash edi. Jadidlar bu maqsadga erishishning eng to'g'ri va yagona yo'li sifatida ilm-fan va ma'rifatni tanladilar. Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiyning "Til birligi, fikr birligi, ish birligi" degan shiori nafaqat ta'lim islohotini, balki milliy o'zlikni anglash g'oyasini ham o'z ichiga olgan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlar tomonidan asos solingan "usuli jadid" maktablari esa an'anaviy ta'lim tizimiga mutlaqo yangicha ruh olib kirdi. Ushbu maqolada jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta'lim islohotlarining mohiyati, yangi usul maktablarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning milliy taraqqiyot poydevorini yaratishdagi tarixiy o'rni tahlil qilinadi.

"Jadid" atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton Salim III hukmronligi (1761–1808) davrida paydo bo'lgan. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko'rgan idora tizimini "Nizomi jadid" deb tushuntiradi. 1789-yilgi Fransiya inqilobidan keyin qurilgan yangi tizim esa "Fransiya nizomi jadidi" deb atalgan. Shu yillarda "Nizomi jadid" tor ma'noda harbiy tizimni yevropalashtirishni, keng ma'noda esa ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirishni ko'zda tutgan [1].

Demak, "jadid" atamasi yangilik tarafdorlarini, yangicha g'oyalarni ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo'llanilgan. XIX asr oxirlarida dunyo tamaddunida yuz berayotgan yirik madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yangi munosabatlar sekin-asta Turkiston o'lkasiga ham kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini, Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, "gazeta o'qug'uvchilarni" eski qarashdagi mullalar "jadidchi" deb ataganlar.

Jadidlar Usmonli Turk imperiyasidagi "Yosh turklar" tashkilotlari ta'sirida "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" va "Yosh turkistonliklar" nomlari bilan faoliyat olib borganlar.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqotda jadidchilik harakatining tarixiy shakllanishi obyektiv tarzda yoritib berildi. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda jadidlar maktabi hamda ularning ma'rifiy harakatlarini mantiqiy izchillik asosida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida Abdulla Avloniyning "Tarjimai hol" ("Tanlangan asarlar", 2 jildlik) hamda Munavvarqori Abdurashidxonovning "Qizil O'zbekiston" nomli asarlari metodologik manba sifatida foydalanildi [2].

Jadidchilik harakatining faoliyati dastlab maktab va maorif sohasidan boshlangan bo'lib, keyinchalik matbuot, san'at va siyosat sohaslariga ham kirib bordi. Rossiya va uning mustamlaka hududlarida jadidchilik harakatiga Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) asos solgan. U Boqchasaroy shahrida dastlabki "usuli jadid" (yangi usul) maktabini 1884-yilda ochgan.

Ismoilbek Gasprinskiyning eng katta xizmatlaridan biri shundaki, u Rossiya hududlarida yashab turgan, ammo zamon ta'sirida bir-biridan uzoqlashib, begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni o'zaro tanishtirdi va yaqinlashtirdi. U ilg'or ma'rifatparvar ziyolilar qatlamining shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Natijada Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida, ayniqsa, maktab va maorif sohasida muhim o'zgarishlar yuz berib, haqiqiy ma'rifiy yangilanish jarayoni boshlandi [3].

Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o'lkahohisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoqosti qilinishi kabi muammolar ta'sirida, shuningdek, bunday og'ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish istagi natijasida o'z zamonasining ilg'or ziyolilari qarashlarida vujudga keldi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilardan iborat edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan xalos etish, shariatni isloh qilish, xalqqa keng ma'noda ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash olib borish, Buxoro va Xiva davlatlarida konstitutsion monarxiya hamda parlament tizimini joriy etish, keyinchalik esa demokratik respublika tuzumini barpo etish orqali ozod va farovon jamiyat qurish [1].

Boqchasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan Ismoil Gasprinskiy Turkiston general-gubernatori N.O. Rozenbaxga o'lkah musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Biroq u rad javobini oladi. Shundan so'ng u 1893-yilda Turkistonga kelib, Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlarida bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Buxoroda u amir Abdulahadxonni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Ushbu maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi.

"Usuli jadid" maktablarida diniy fanlar va arab tili bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, tabobat, nujum, handasa kabi fanlar, shuningdek, rus va fors tillari ham o'qitilishi rejalashtirilgan bo'lib, jami 17 tagacha fan o'rganilishi ko'zda tutilgan edi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Samarqandda esa Abduqodir Shakuriy kabi ma'rifatparvarlar tomonidan dastlabki jadid maktablari ochildi [4].

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919)ning xizmati katta bo'ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi edi. Behbudiyning tashabbusi bilan "Behbudiya kutubxonasi" deb atalgan kutubxona tashkil qilingan [7].

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) Turkiston o'lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma'rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri edi. 1904-yildan boshlab o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisiga aylandi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ'ibotchisi bo'lgan. Munavvarqori maktablar uchun "Adibi avval", "Adibi soniy", "Yer yuzi" kabi darsliklarni yaratdi.

Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ildi. U maktab va madrasada ta'lim olib, o'z zamonasining ma'rifatlil va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yilda "Shuhrat" gazetasiga asos soldi. O'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklarni yaratdi [6].

Munavvarqori Abdurashidxonov "Taraqqiy" jurnalidagi maqolasida bag'rikenglik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi ta'lim tizimi zarurligini ta'kidlab: "Ta'lim diniy aqidalar va xurofotlardan xoli bo'lishi, o'quvchilarning o'z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakllantirishi mumkin bo'lgan makonni ta'minlashi kerak", degan edi [5].

Turkistonda jadidchilik harakatining faol tashkilotchilari va ishtirokchilari qatoriga ko'plab ma'rifatparvar ziyolilar kiradi. Ular orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi),

Polvonniyoz hoji Yusupov va Boboovun Salimov (Xorazm) kabi siymolarni birinchilar qatorida tilga olish mumkin [6].

Xulosa qilib aytganda, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar hamda g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun keng imkoniyatlar yaratishga intildilar. Tarixning murakkab va mas'uliyatli davrida ular millat ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish eng muhim vazifalardan biri ekanini chuqur anglab, bu yo'ldagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida ta'kidlaganidek, biz jadidchilik harakati va ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz zarur. Ushbu ma'naviy xazinani qanchalik chuqur o'rgansak, bugungi kunda jamiyatimizni o'ylantirayotgan ko'plab savollarga ham shunchalik to'g'ri javob topamiz [7].

Jadidlar merosini o'rganish nafaqat tarixiy bilimimizni boyitadi, balki milliy iftixor tuyg'usini mustahkamlash va yosh avlodni ma'rifatparvar ruhda tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Turkiston jadidchilik harakati shunchaki ta'limiy islohot emas, balki millatning ijtimoiy-siyosiy uyg'onish jarayoni edi. Jadidlar yaratgan ta'lim tizimi milliy kadrlar va yangi avlod ziyolilarining shakllanishiga zamin yaratdi. Ularning til va imlo borasidagi islohotlari o'zbek tilining nufuzini oshirib, millatni birlashtiruvchi qudratli vositaga aylantirdi. Garchi sho'ro davri qatag'onlari natijasida jadidlar jismonan yo'q qilingan bo'lsa-da, ularning g'oyalari yo'qolmadi. Bugungi kunda O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan harakatlar aynan jadid bobolarimiz boshlab bergan ezgu yo'lning mantiqiy davomidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B. Jadidchilik: g'oya va harakat. Toshkent: Ma'naviyat, 2000. B. 52–54.
2. Munavvarqori Abdurashidxon. Qizil O'zbekiston. Toshkent: Ma'naviyat, 1995. B. 45–50.
3. Gasprinskiy I. Tarjimon gazetasi va jadidchilik g'oyalari haqida maqolalar to'plami.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Toshkent: Sharq, 2010. B. 306–307.
5. IIAU. Rasmiy sayt: yangiliklar bo'limi. URL: <https://www.ii.au.uz/index.php/oz/news/3076>
6. Avloniy A. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. Toshkent: Ma'naviyat, 1998. J. 2. B. 112–118.
7. Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. Toshkent, 2017.